

“IKKI ESHIK ORASI”ROMANIDA RUHIY HOLAT IFODALOVCHI VERBAL VOSITALAR

Sharipova Mahliyo G'ayratovna

TATU FF akademik litsey o'quv bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida keltirilgan qahramonlar ruhiyatini ochib berishdagi verbal vositalar haqida.*

Kalit so'zlar: *Psixolingvistika, funktsionallashish, paralingvistika, verbal vositalar, noverbal vositalar, kinetik vositalar.*

Badiiy asar tilida uslubiy vazifa bajarishga xizmat qiluvchi tilning maxsus ifoda vositalari borki, ular badiiy uslubning boshqa funksional uslublari orasidagi mavqeyini ifodalovchi muhim belgilardan biri sanaladi. Chunki til vositalarini majoziy, ya'ni ko'chma ma'nolarda hamda obrazli tasvirda qo'llash imkoni ma'lum darajada tilning boshqa funksional uslublari ham mavjud, ammo ularda badiiy uslubdagi kabi erkin va keng doirada o'rganish imkoniyati yo'q¹¹.

Tilshunos olim N.Mahmudov shunday yozadi: “O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi. Badiiy-estetik qimmat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmagani, ohoriligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat, predmatlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdlantiradi¹².”

Turg'un o'xshatishlarning mohiyati shundan iboratki, ularda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalk tili leksikonidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor birliklar kabi nutqqa olib kiriladi¹³.

– *Shomurodga...*

– *Nima?! – U chayon chaqqandek sakrab o'rnidan turdi. Etagining shamoli tegib lampaga o'chib qoldi (46-bet).*

¹¹ Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2001. – Б.7.

¹² Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.5-6.

¹³ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.6.

Chayon chaqqan (odam)day ifodasi “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlanadi: “Sapchimoq, sakrab ketmoq, keskin harakat qilmoq. Birdaniga, tezlik bilan biron harakat qilmoq”¹⁴.

“O‘xshatishlardan eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta’minlashda foydalanib kelinadi. Bu muhim va keng qo‘llanuvchi vosita tilimizda xalqimizning tarixiy-madaniy tajribalari, badiiy tasavvurlarning natijasi sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, badiiy asarda so‘z ustasining kuzatuvchan ziyrak nigohi va teran badiiy didining mahsuli sifatida yuzaga keladi”¹⁵.

Takror – asosan, badiiy nutqqa xos sintaktik-stilistik ifoda usullaridan biri. Til yoki nutq birliklarini ataylab, aynan takrorlash orqali muallif o‘z fikrining ta’sir kuchini oshirishga, his-tuyg‘ularini bo‘rttirib ifodalashga erishadi. Takror badiiy adabiyotda keng tarqalgan, eng qadimiy stilistik vosita turi bo‘lib, so‘z ustalari undan tasvir etilayotgan obyektga bo‘lgan subyektiv munosabatlarni ifodalash, unga baho berish, tinglovchi yoki o‘quvchining diqqatini tortish maqsadida foydalanganlar.

Takrorning funksiyasi muallif nutqini ta’sirchan etish, fikrni aniqlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi yoki o‘quvchini ishontirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat¹⁶.

Takrordan yozuvchilar qahramonning ruhiy holatini ifodalashda vosita sifatida foydalanadilar. Quyidagi matnda *Obketing!* gapi yetti marta takrorlangan:

– *Obketing!* – *Ra’no kelinoyimning bo’g’zidan bo’g’iq nido otilib chiqdi.* – *Obketing! Askarlarning kir-chirini yuvaman. Ovqat pishiraman! Yarasini bog’- layman! Obketing. Jon Shomurod aka! Obketing!* – *Ra’no!* – *Asabiylashganidan tog’amning ovozi baland, keskin chiqdi.* – *Qo’ysang-chi endi.* – *Obketi-ing!* – *Ra’no kelinoyim yalinib iltijo qildi.* – *Ra’no, jinnimisan? Tursang-chi! Ana, hammayog’ing shallabo bo’ldi.* – *Bo’la qolsin!* – *Ra’no kelinoyimning ovozi tahdidli yangradi.* – *Obketing! Obketing. Yo obketasiz, yo o’ldirib ketasiz!* (152-bet)

Inson o‘z faoliyatini verbal va noverbal ko‘rinishlar asosida namoyon qiladi. Bunda uning nutqiga singib, qorishib ketuvchi va uning nutqiy axloqini namoyish etuvchi ichki holati ham sezilib turadi. Inson verbal vositalar yordamida o‘z fikrini ifoda etar yoki o‘zgalar fikrini qabul qilar ekan, ana shu nutqiy jarayonda tinglovchining ichki his-tuyg‘ularini sezadi. Bu his-tuyg‘ular uning nutqida oshkora, ba’zida yashirin holda amalga oshiriladi. Bu esa uning biror voqea, hodisa, fikrga nisbatan xususiy munosabatini belgilaydi. Bunday xususiy munosabatlardan biri ironik mazmun – munosabat ifodalashdir. Voqea, hodisa, yoki u haqidagi fikrga bo‘lgan xususiy munosabat ba’zan ochiq aytilmay, yashirin tarzda ifoda etiladi. Uslubshunoslikda nutq jarayonida suhbatdosh harakati yoki holatiga nisbatan bildiriladigan ichki yashirin salbiy munosabat ifodalash usuli ironiya deb

¹⁴ Махмудов Н. Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2013. – Б.244.

¹⁵ Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати. : Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 99.

¹⁶ Mamajonov A., Rozikova G. Sintaktik stilistikaning nazariy masalalari. – Farg‘ona, 2024. – B.22.



ataladi¹⁷. Demak, ironiya badiiy matnda uslubiy vositalardan biri sanaladi va so'zlovchining tinglovchiga salbiy munosabatini ifoda qilish ko'rinishi sifatida xizmat qiladi. So'zlovchining noroziligi, g'azabi to'g'ridan-to'g'ri bildirilmay, tagma'no yordamida ifoda qilinishida ironiya namoyon bo'ladi.

Ironik mazmun ifodalash usuli subyektiv munosabatning bir ko'rinishi bo'lib, ko'proq suhbatdoshga nisbatan tanqidiy qarash va shu asosda yashirin salbiy munosabat bildirishdan iborat bo'ladi.

Kechqurun ovqatdan keyin bobom Kimsan akamni so'roqqa tutib qoldi: – Uchuvchi bo'laman, deng, boyvachcha? Kimsan akam iyagidagi husnbuzarni tirnog'i bilan sitib, o'shshayib o'tiraverdi. Bu uning: “Ha, qo'lingizdan kelganini qiling”, degani edi. – Menga qarang, boyvachcha! – bobom tajanglik bilan bo'ynini cho'zdi. – Ketmoningiz yengillik qilib qolganga o'xshaydi. Molxonaga kiring, yarim pudli ketmon turibdi! Ana o'shani mining-da, dalaga chiqib ayriplon qilib uching, xo'pmi? (72-bet)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бурханова М. Креолизатив матнларнинг паралингвопозетик тадқиқи: Филол.фан.бўй.фалс.д-ри (PhD)... дисс. – Фаргона, 2022.
2. Исмоилов Х. Суд лингвистикасининг социолнгвистик ва психолнгвистик аспектлари (жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2021. – Б.17.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. III жилдлик. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – Б.221.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. – Андижон, 1980. – 42 б.;
5. Саидхонов М. Новербал воситалар ва уларнинг ўзбек тилида ифодаланиши: Филол.фан.ном...дисс. автореферат. – Тошкент, 1993. – 24 б.;
6. Саидхонов М. Мимик новербал воситалар. Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Андижон, 2020-йил, 4-май. – Б.238

¹⁷ Ибрагимова Э. Ўзбек тилида ирония ва ироник мазмун ифодаланишининг усул ҳамда воситалари: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2001. – Б.7.